

KIMYO FANIDA TURLI INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH USULLARI

Raximova Robiya Hamid qizi

Navoiy viloyati Nurota tumani

19- sonli umumiy o'rta ta'lim maktab

kimyo fani o'qituvchisi

Nuralibaxtiyorov007@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqola kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va interfaol metodlar qo'llashning usullari borasidagi qarashlardan iborat.

Abstract. This article contains views on the importance of using innovative pedagogical technologies in teaching chemistry, its specific features and methods of using interactive methods.

Аннотация. В данной статье содержатся мнения о важности использования инновационных педагогических технологий в обучении химии, ее специфике и методах использования интерактивных методов.

Kalit so'zlar: kimyo, interfaol metod, innovatsion yondashuv, "Aqliy hujum" metodi, "A4" metodi, "Ortiqchasini top" metodi, "Rasmlar orasidagi bog'liqlik" metodi.

Keywords: chemistry, interactive method, innovative approach, Brainstorming, A4, Find the excess, Connection between pictures.

Ключевые слова: химия, интерактивный метод, инновационный подход, Мозговой штурм, А4, Найди лишнее, Связь между картинками

Bir xillik insonni zeriktirgani kabi har safar bir xil dars muhiti o'quvchilarni ham zeriktirishi tabiiy. Bu esa ularning ushbu fanga nisbatan e'tiborini susaytiradi. Buni oldini olishning yagona yo'li esa o'zgacha dars ssenariysini tashkil qilishdir.

Har darsda o'quvchilarni mutlaqo e'tiborini tortadigan yangi "nimadir" tayyorlab qo'yish yoki darslarda xilma-xil, yangi va qiziqarli metodlardan foydalanish zarur. Bu dars samarasini va o'quvchilar aktivligini maksimal oshishiga yordam beradi. Quyida men sizlarga bir nechta interfaol metodlarni qo'llash usullarini aytib o'taman.

"Aqliy hujum" metodi.

Dars o'tishda foydalaniladigan samarali metodlardan biri "Aqliy hujum" metodi hisoblanadi.

Chunki dars o'tishda "Aqliy hujum" metodidan foydalanish o'quvchilarning faolligini va qiziqishini oshiradi. O'quvchilarning darsda bimalol fikrlarini aytishini rivojlantirishda ham bu metod katta yordam beradi.

Bundan tashqari bu metodni darsda qo'llash o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini ortirish bilan birga ularga motivatsiya ham beradi.

"A4" metodi.

Bu metod uchun bizga 6 ta A4 formatidagi qog'oz kerak bo'ladi. Har bir qator boshidagi o'quvchilarga bittadan oq qog'ozni beramiz va o'tilgan mavzudan

bitta ma'lumot yozishini aytamiz. Ma'lumotni yozgandan keyin orqasida o'tirgan o'quvchiga qog'ozni uzatadi. har bir ma'lumot bir marta yozilishi kerak. Qaysi qator birinchi bo'lib ma'lumot yozishni tugatsa o'sha qatordagi eng oxirgi o'quvchi qog'ozdagi ma'lumotlarni o'qiydi. 6 ta qatorning ham ma'lumotlari eshitiladi.

Bu metodning afzalliklari shundan iboratki, o'quvchilar o'tilgan darsni takrorlashga majbur bo'lishadi, xotirani mustahkamlaydi, chaqqonlikni oshiradi va mavzuni takrorlashda barcha o'quvchilarning ishtiroki ta'minlanadi.

Eng asosiysi bu metodga kompyuter, svet, elektron doska kabi anjomlar kerak bo'lmaydi. Bitta oq qog'oz va ruchka bo'lsa bo'lgani.

“Ortiqchasini top“ metodi.

Bu metod yordamida bugun qaysi yangi mavzuni o'tishimizni aniqlashimiz mumkin. Masalan, doskaga yangi mavzuni quyidagicha yozamiz “**MERUXTALLKALSIYAR**” o'quvchilar esa doskadagi so'zda ortiqchalarini chiqarib yuborib bugungi mavzuni topadilar yani: **METALLAR**.

Ortiqcha so'zlar esa shu mavzuga tegishli kalit so'zlar Rux, Kalsiy. Bu metodning avfzalliklari shundan iboratki:

1. E'tiborni jamlaydi
2. Yangi mavzuni topishadi
3. Bugungi darsda foydalaniladigan kalit so'zlarni topishadi

“Rasmlar orasidagi bog'liqlik” metodi.

Bir biriga aloqasi yo'q kimyoga oid 6-10 dona rasm qirqib olamiz va xat jildga solamiz. Bunday xat jilddan bizga sinfdagi guruhlar nechta bo'lsa shuncha kerak, lekin 4-6 tadan ko'p emas. Bu xat jildlarni har bir guruhga bittadan tarqatamiz va o'quvchilarga shu xatjild ichidagi rasmlarni bir biriga bog'lab matn tuzishni vazifa qilib beramiz. Har bir guruh tuzgan matnlarini o'qib beradi va eng yaxshi matn yozgan guruh g'olib bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqorida berilga metodlardan kimyo darslarida unumli foydalansak o'quvchilarning “juda zerikarli” deb hisoblanadigan kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini orttirishimiz mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Kimyo darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Sarimova D.S
5. N.G.Raxmatullayev, O.I.Iskandarov. Yu. T. Toshpo'latov, "Kimyo fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish" "Pedagogik ta'lim" 14 2004 y
6. Umidli kimyogarlar. -T. "O'qituvchi" 2009.
7. Maktabda kimyo jurnali 2021 yil 9-son